

“Yadro energetikasi va yadroviy texnologiyalarning hozirgi zamon muammolari” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi

Avval xabar qilganimizdek, joriy yilning 23-25-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining 65 yilligi munosabati bilan “Yadro energetikasi va yadroviy texnologiyalarning hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi.





Konferensiyada nafaqat respublikamiz, balki dunyoning 10 mamlakatidan 195 nafar olimlar offlayn hamda onlayn ishtirok etdilar.



Uch kun davom etgan konferensiya ishi quyidagi sho'balarda olib borildi:

- Yadro fizikasi
 - Yuqori energiyalar fizikasi
 - Atom yadrosi strukturasi
 - Yadro reaksiyalari va yadroviy astrofizika
- Yadro energetikasi va yadro-energetik qurilmalar kelajagi
 - Yadro energetikasi

- Yadro yoqilg'isi va reaktor materiallari
- Yadro-energetik qurilmalar
- Kondensirlangan materiallar radiatsiyaviy fizikasi
- Strukturaviy o'zgarishlar radiatsiyaviy fizikasi
- Qattiq va nanoo'lchamlik materiallar xossalari modifikatsiyasining radiatsiyaviy texnologiyasi
- Nanofizika va nanomateriallar
- Yadroviy texnologiyalar
- Fanda va ishlab-chiqarishda tahlilning yadro-fizik uslublari
- Radiokimyo, radioizotoplarni ishlab chiqish va qo'llash
- Yadroviy tibbiyot
- Yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik
- Ekologiya
- Radioaktiv chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Ushbu konferensiyaning o'tkazilishi fundamental va amaliy yadro fizikasining hozirgi zamondagi tendensiyalari, yadro energetikasi, yadro texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash, yadroviy tibbiyot sohalaridagi dunyo miqyosida erishilgan yutuqlar bilan keng ko'lamda tanishish imkonini yaratdi.